

**QISHLOQ VA SUV XO'JALIGIDA INNAVATSION
TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH SAMARADORLIGI**

Muhammadjonova O'g'iloy Bahodirjon qizi

FarDU 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada, qishloq xo'jaligining rivoji hamda qishloq va suv xo'jaligida amalga oshirilayotgan texnologiyalar va innavatsion rejalar haqida hamda bu texnologiyalaridan keng foydalanish haqida, hamda yurtimizda amalga oshirilayotgan qishloq va suv xo'jaligida ro'y berayotgan o'zgarishlar haqida keng ma'lumotlar berilib o'tilgan.

Аннотация: В данной статье о развитии сельского хозяйства и технологиях и инновационных планах, реализуемых в сельском и водном хозяйстве и о широком использовании этих технологий, а также об изменениях, происходящих в сельском и водном хозяйстве в нашей стране. было предоставлено.

Abstract: In this article, about the development of agriculture and the technologies and innovative plans implemented in agriculture and water management and about the wide use of these technologies, as well as about the changes taking place in agriculture and water management in our country. information has been provided.

Kalit so'zlar: mamlakat, suv resurslari, dastlabki yillar, yo'nalishlar, iqtisodiyot, rivojlantirish, mustaqillik, dastlabki yillar, invitetsiya

Ключевые слова: страна, водные ресурсы, ранние годы, направления, экономика, развитие, независимость, ранние годы, приглашение.

Key words: country, water resources, early years, directions, economy, development, independence, early years, invitation

KIRISH.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardan boshlab milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning o'ziga xos yo'nalishini belgilab oldi. U iqtisodiyotning rivojlanishi va barqarorligida investitsiyalarning beqiyos o'rinnutishini o'z vaqtida to'g'ri anglab yetganligining natijasida investitsiyalarga, xususan, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish investitsiyalariga bo'lgan e'tiborning kuchayishi yuz berdiki, bu esa bugungi kunga kelib mamlakatimizdagi investitsiya faoliyatining rivojlantirilishiga olib keldi. Bugungi kunda rivojlangan ivesitision faoliyatning yo'lga qo'yilishini hukumatimizning yuritayotgan oqilona investitsiya siyosatining mahsuli ekanligini ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentimizning 2019-yil 23-noyabrdagi PF-5853-sun Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030- yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" asosida Investitsiyalarni jalg qilish, xorijiy investitsiyalar bilan hamkorlikni rivojlantirish, yangi ishlab chiqarishlar va ish o'rinalarini yaratish ishlari ustuvor yo'nalishlari belgilab qo'yilgan. Shunday qilib, investitsiyalar to'g'risidagi qonunning qoidalari ko'ra, investitsion faoliyat deganda daromad olish va (yoki) boshqa foydali samaraga erishish uchun

investitsiyalar kiritish va amaliy harakatlarni amalga oshirish tushuniladi. Investitsiyalar harakati ikki asosiy bosqichdan o'tadi. Birinchi bosqichda investitsiya resurslari - mablag'larni investitsiyalash, asosiy e'tibor mablag'larni qo'yish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyatga qaratiladi. Ushbu bosqichning maqsadga muvofiqligi investitsiya resurslarining daromadliligi bilan belgilanadi. Ikkinci bosqich - mablag'larni investitsiyalash - investitsiya natijasi investitsiyalardan foydalanish natijasida qilingan xarajatlarni qoplash va daromad olishni o'z ichiga oladi. U har qanday turdag'i iqtisodiy faoliyatning ikkita zarur elementi: xarajatlar va ularning daromadlarining o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liqligini tavsiflaydi. Demak, investitsiya faoliyatining iqtisodiy mohiyatini keljakda daromad olish uchun resurslarni investitsiyalash jarayonlarining birligi sifatida aniqlash mumkin. Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishida tabiiy omillar ta'sirining yuqoriligi bilan bir qatorda qishloq xo'jaligini agrotexnik, huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun investitsiyalar ajratish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari, suv xo'jaligi obyektlari faoliyatining muntazamligini ta'minlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining texnika ta'minotini kuchaytirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, hosildorligi past yerlarda paxta xomashyosi yetishtiruvchi xo'jaliklarni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash va ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi yo'nalishlar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Hozirgi kunda dunyo miqyosida miqyosida ishlab chiqarish sohasini rivojlanayotganligi, zavod fabrika, kimyo sanoati, mashinasozlik, metallurgik zavodlarning rivojlanganligidan quvonsak arziysi lekin ulardan chiqadigan gazlar ortidan global isish tufayli tog'li regionlarda muzliklarning chegarasining erish natijasida qisqarishi, ular hajmining kamayishi yaqin 20 yilda daryolar oqimi, xususan, respublikamiz hududidan oqib o'tuvchi daryolar, Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshonga quyiladigan suvlarning 30-40% ga qisqarishi mumkin bo'lib, mintaqaga jiddiy muammolar tug'dirishi, qurg'oqchilik yillarda Amudaryoning quyi qismida suv mineralizatsiyasining o'rtacha yillik miqdori 1,5- 2 martaga ortishi mumkin.

Bu holatlar bora – bora orol fojiasi kabi global muammolarga aylanib bormoqda, XX asir oxiriga kelib O'zbekistonda harorat dinamikasi rejimining kuzatuvlari shuni ko'rsatdiki, maksimal haroratning o'sish sur'ati yiliga 0,21-0,23 darajaga, minimal esa minus 0,3-0,4 darajani tashkil qildi. Shunga asoslangan holda, 20 yildan keyin respublikamiz vohalarida o'rtacha yillik harorat 2-4 darajaga va vodiylar hamda janubiy qismida esa 1-2 darajaga ortadi. Iqlim o'zgarishi natijasida suv yuzalaridan suvning bug'lanish ko'rsatkichi 17% gacha, o'simliklar transpiratsiyasi va sug'orish me'yorlarining ortishi tufayli suvning 25% dan ko'prog'i sarflanishiga olib keladi. Bu esa suvning tiklanmay iste'mol qilinishini o'rta hisobda 18-20% ga ortishiga olib keladi. Bu, shubhasiz, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining keyingi o'sishini qiyinlashtiradi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidentining 2013 yil 19 apreldagi «2013-2017 yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish choratadbirlari to'g'risida»gi qaroriga asosan 2013-2017 yillar davomida jami 25 ming hektar maydonda tomchilatib sug'orish tizimi, 45,6 ming hektar maydonda egatga pylonka to'shab sug'orish usuli hamda 34 ming hektar maydonda esa o'q ariqlar o'rniga ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish usullari joriy etilishi belgilangan. Zamonaviy suvni tejaydigan texnologiyalarning afzalliklari, ekinlarni sug'orishda suv tejovchi istiqbolli usullarni qo'llashda yomg'irlatib sug'orishda dalaga suv berish miqdori 20-25 % gacha kamayadi, yer ostidan sug'orishda dalaga suv berish miqdori 25-30 % gacha kamayadi, tomchilatib sug'orishda dalaga suv berish miqdori odatdagidan 30-60 % gacha kamayadi, egat olinmaydi. Misol tariqasida olib qaraydigan bo'lsak, Turkiya davlati iqlimi qishloq xo'jaligi uchun juda ko'p qulayliklar yaratadi va bu barcha turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish imkonini beradi. Ammo qishloq xo'jaligi tarmog'i yaxshi rivojlanmagan, masalan, katta imkoniyatlar mavjud bo'lgan sharoitda asosiy qishloq ho'jaligi ekin bo'lgan g'allaning o'rtacha hosildorligi 21 tsentnerni tashkil qiladi va aholi jon boshiga yetishtiriladigan go'sht miqdori o'rtacha 18 kg tashkil qiladi. Suv xo'jaligi bilan bog'liq barcha ishlarni rejalashtirish, loyihalash, qurish, suv toshqinlariga qarshi kurash, qishloq xo'jaligi ekinlari maydonlarini suv bilan ta'minlash, suv resurslarini shahar va qishloqlarga yetkazib berish ishlarini Davlat suv xo'jaligi boshqarmasi (DSI) amalga oshiradi. Shu bilan bir qatorda, suv bilan bog'liq bajariladigan va bajarilishi lozim bo'lgan ishlar bilan shaxsan Bosh Vazir shug'ullanadi va nazorat olib boradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Mamlakatimizda, suvni tejovchi texnologiyalarini keng joriy qilish, bunda davlat tomonidan yaratilayotgan qulayliklardan foydalanish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish maqsadida quyidagi takliflarni bermoqchimiz:

- qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda suv tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy qilishni yanada kengaytirish va davlat tomonidan rag'batlantirib borish, ushbu sohaga xorijiy investitsiyalar va grantlarni jalg' qilish;

- sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va barqarorligini ta'minlash, yerlarning unumdorligini oshirishga ko'maklashish, tuproqning sho'rланish darajasini pasaytirish va oldini olish bo'yicha samarali texnologiyalarni qo'llash;

- suv xo'jaligida bozor iqtisodiyoti tamoyillarini, jumladan, suvni yetkazish xarajatlarining bir qismini bosqichma-bosqich suv iste'molchilarini tomonidan qoplash tizimini joriy qilish, tushgan mablag'larni suv xo'jaligi ob'ektlarini o'z vaqtida sifatli ta'mirlash-tiklash, raqamli texnologiyalarni joriy qilish hamda samarali boshqarishga yo'naltirish;

- suv xo'jaligi sohasi uchun malakali kadrlarni tayyorlash, xodimlarning

malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish sohalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni rivojlantirish hamda ilm-fan yutuqlari va nouxaularni ishlab chiqarishga joriy qilish.

Xulosa qiladigan bo'lsak, xorijiy davlatlarda sug'orish texnologiyasini takomillashtirishga katta ahamiyat berilgan. Dunyodagi ko'pgina mamlakatlarning har bir melioratsiya va suv xo'jaligi bo'yicha o'z tarixiy an'analariga, suv resurslariga bo'lgan ehtiyojiga, iqtisodiyotning rivojlanish yo'liga, sug'orish tarixiga egadir va ular bir - biridan farq qiladi. Suvdan foydalanish yo'nalishlari ularda, asosan, davlatning taraqqiyot darajasiga qarab belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullaev T.X. (2022). Qishloq ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish muammolari, investitsiyalarni hal qilish yo'llari. Экономический анализ: теория и практика, (10), 53-57.
2. Botirova S.M., Rasulov D. G. Investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari. - T.: Moliya, 2020.
3. Подшиваленко Г.П., Киселева Н.В. Инвестиционная деятельность: Учеб. пособие. — М.: КНОРУС, 2019.
4. Saidmamatov O., Salaev S., Eschanov B., Shimin L. Renewable energy potential of developing countries: The drivers towards a green economy (a case study from Uzbekistan), International Journal of Green Economics, 8 (2): 134 – 143.
5. ZS Shoxujaeva. Economic efficiency of water resources use in the agricultural sector. Monograph. T.: " Economy and Finance" Publishing House, 2012.
6. Shoxojaeva Zebo Safoevna, Samandarov Mirzoxid Mirjamilovich. Shoxojaeva Zebo Safoevna, Samandarov Mirzoxid Mirjamilovich. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal.2021/3
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo'ljallangan kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6024-sون Farmoni. 2020 yil 10 iyul.
8. Shoxo'jayeva, Z. S. (2020). Problems and solutions in the water sector of the region. In НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 21-24). Safoevna, S. Z., & Sagdullaevna, T. F. (2021). Food provision of the population of the republic of uzbekistan in pandemy conditions: problems and solutions. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(2), 1320-1325.
9. Kurbonov, A. B., & Shoxo'jaeva, Z. S. (2019). Sustainable development of the agrarian sector depends on the efficient use of water resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology, 8(6), 5123-5126
10. Vol. 2 No. 11 (2023): JOURNAL OF ENGINEERING, MECHANICS AND MODERN ARCHITECTURE (JEEMA) /

11. Фазлиев, Ж. Ш. (2023, October). ТОМЧИЛАТИБ СУФОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ ОРҚАЛИ СУФОРИЛГАН ОЛМА БОҒЛАРИНИНГ ТУПРОҚ АГРОКИМЁВИЙ КЎРСАТГИЧЛАРИ. In Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities (Vol. 2, No. 11, pp. 19-23).
12. Фазлиев, Ж. Ш. (2019). EFFICIENCY OF USE OF CLAY WATER WITH DROP IRRIGATION. ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ, (4).
13. Xudayev, I. J., & Tojiyev, S. M. (2023). NAMLATGICH-BLOKLARDAN HOSIL QILINGAN EKRANLI EGATLARDAN G ‘O ‘ZANI SUG ‘ORISH TEXNOLOGIYASI. In Uz-Conferences (Vol. 1, No. 1, pp. 514-519).
14. Худайев, И., & Фазлиев, Ж. ТЕХНОЛОГИЯ КАПЕЛЬНОГО ОРОШЕНИЯ САДОВ И ВИНОГРАДНИКОВ. JURNALI, 176
15. Fazliyev, J. (2017). Drip irrigation technology in gardens. Интернаука. Science Journal, 7(11).
16. Fazliyev, J. (2018). Modern irrigation methods for gardens. Science, 22, 24-26.
17. Фазлиев, Ж. Ш., & Баратов, С. С. (2014). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ГЛИНИСТОЙ ВОДЫ ПРИ КАПЕЛЬНОМ ОРОШЕНИИ. The Way of Science, (4), 77.
18. Fazliyev, J. EFFICIENCY OF APPLYING THE WATER-SAVING IRRIGATION TECHNOLOGIES IN IRRIGATED FARMING «ИНТЕРНАУКА» Science Journal № 21 (103) June 2019 г.
19. Khudaev, I., & Fazliev, J. (2022). Water-saving irrigation technology in the foothill areas in the south of the Republic of Uzbekistan. Современные инновации, системы и технологии, 2(2), 0301-0309
20. Фазлиев, Ж. Ш. (2017). Боғларда томчилатиб суфориш технологияси. Интернаука, (7-3), 71-73.